



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



AMIR TEMUR HARBIY-SIYOSIY STRATEGIYASINING XORIJIY MANBALARDAGI TASNIFI

Mamazoxidova Gulsanam Xayrullo qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

Tel: +998 (94) 443 25 75

Ilmiy rahbar: Norkuziyev Dadaxon Raxmanjonovich

Annatotsiya: *Mazkur maqolada XIV–XV asrlar tarixida beqiyos iz qoldirgan Amir Temurning harbiy-siyosiy strategiyasi xorijiy manbalar asosida ilmiy tahlil qilinadi. Unda Temurning harbiy yurishlari tasodifiy bosqinchilik emas, balki aniq strategik maqsad, puxta razvedka va siyosiy hisob-kitobga tayangan murakkab tizim ekani asoslanadi. Qo‘shin tuzilmasi, intizom va zaxira kuchlardan foydalanish usullari ochib beriladi. Xususan, Anqara voqeasining Yevropa tarixiga ta‘siri hamda Sharq va G‘arb muarrirlari bergan baholar qiyosiy yondashuvda yoritilib, Temurning sarkardalik salohiyati va davlat qurish tajribasi umumlashtiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, harbiy-siyosiy strategiya, xorijiy manbalar, jang taktikasi, muntazam armiya, markazlashgan davlat, diplomatik siyosat, razvedka tizimi, Rene Grousset, Herman Vambery, Mikhail Ivanin, Anqara (1402), Temur tuzuklari, Yevropa tarixchilari.*

Русский вариант: *В данной статье на основе зарубежных источников проводится научный анализ военно-политической стратегии Амира Темура, оставившего неизгладимый след в истории XIV–XV веков. Обосновывается, что его военные походы не являлись случайными завоевательными действиями, а представляли собой сложную систему, основанную на чётко продуманных стратегических целях, тщательной разведке и взвешенных политических расчётах. Раскрываются особенности структуры войска, строгой дисциплины и методов использования резервных сил. Особое внимание уделяется влиянию Анкарского сражения на историю Европы, а также сравнительному анализу оценок, данных восточными и западными историками. В статье обобщаются полководческий талант Амира Темура и его опыт государственного строительства.*

Ключевые слова: *Амир Темура, военно-политическая стратегия, зарубежные источники, боевая тактика, регулярная армия, централизованное государство, дипломатическая политика, разведывательная система, Рене Груссе, Герман Вамбери, Михаил Иванин, Анкара (1402), «Уложение Темура» (Темур тузуклари), европейские историки.*

English: *This article provides a scholarly analysis of Amir Temur’s military and political strategy, based on foreign sources, highlighting his unparalleled impact on the history of the 14th–15th centuries. It argues that his military campaigns were not random acts of conquest, but rather a complex system grounded in clearly defined strategic objectives,*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



thorough intelligence operations, and careful political calculations. The study examines the structure of his army, the role of discipline, and the methods of deploying reserve forces. Particular attention is paid to the impact of the Battle of Ankara on European history, as well as to a comparative analysis of assessments offered by Eastern and Western historians. The article ultimately synthesizes Amir Temur's leadership qualities as a commander and his experience in state-building.

Keywords: Amir Temur, military-political strategy, foreign sources, battle tactics, regular army, centralized state, diplomatic policy, intelligence system, René Grousset, Hermann Vámbéry, Mikhail Ivanin, Ankara (1402), Temur's Code (Temur Tuzuklari), European historians.

Tarix sahifalarida shunday shaxslar borki, ularning nomi butun bir davrning mazmunini ifodalaydi. XIV asr oxiri – XV asr boshlarida yashab, keng hududlarni yagona siyosiy makonga birlashtirgan buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur ana shunday siymolardan biridir. Uning faoliyati nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yaqin va O'rta Sharq hamda Yevropa tarixida chuqur iz qoldirgan. Amir Temur shaxsiga biryozlama baho berish mushkul. Chunki u bir tomondan zabardast lashkarboshi, qat'iyatli hukmdor va kuchli markazlashgan davlat asoschisi bo'lsa, ikkinchi tomondan uning yurishlari ko'plab siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan murakkab tarixiy jarayon bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, uning harbiy yurishlari tasodifiy bosqinchilik emas, balki chuqur o'ylangan strategiya, siyosiy hisob-kitob va uzoqni ko'zlagan maqsadlar mahsuli bo'lganligi xorijiy manbalarda ham alohida ta'kidlanadi. Qizig'i shundaki, Amir Temur shaxsi va faoliyati haqidagi tasvirlar turli hudud va madaniy muhitga mansub tarixchilarda turlicha aks etgan. Sharq muarrixlari uni qudratli va adolatparvar hukmdor sifatida tasvirlasalar, Yevropa manbalarida ko'proq harbiy dahosi va qo'rqinchli siyosiy qudrati e'tirof etiladi. Usmonli tarixchilari esa uni o'z davrining eng yirik siyosiy raqiblaridan biri sifatida baholaydilar. Shu bois, xorijiy manbalar asosida Amir Temurning harbiy-siyosiy strategiyasini tasniflash va tahlil qilish nafaqat tarixiy haqiqatni aniqlash, balki turli sivilizatsiyalarning bir shaxsiga nisbatan qarashlarini qiyyosiy o'rganish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi — xorijiy tarixiy manbalarda Amir Temur harbiy-siyosiy strategiyasining qanday talqin etilganini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda mazkur strategiyaning tarixiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

O'sha davrda Amir Temurning strategik va taktik tartibda jang olib borish uslubi, albatta, uning buyuk lashkarboshilik mahoratidan darak beradi. U jang oldidan qaysi mamlakatgayurish qilmoqchi bo'lsa, uni obdan va pishiq o'rganar edi. Agar siyosat bilan va tinch vositalar orqali masalani hal qilish imkoniyati bo'lsa, Sohibqiron bu yerda qurol ishlatishni noto'g'ri deb hisoblardi. Amir Temur qaysi bir mamlakatda zolimlik zo'rvonlik jabr-zulm, adolatsizlik kuchli bo'lsa, xalq ommasining o'z podshosidan noroziligi oshib, qashshoq bir holga kelib qolgan bo'lsa, unday mamlakatga qarshi urush e'lon qilardi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Yana u qaysi bir mamlakat hukmdori dini islomdan qaytgan bo‘lsa, odamlarning diniy e‘tiqodi susayib, dindorlar tahqirlangan va kamsitilgan bo‘lsa, axloqiy fahsh va buzuq ishlarga yo‘l ochib qo‘yilgan bo‘lsa, bunday mamlakatga qo‘shin tortib kirish va Muhammad alayhissalom e‘tiqodini tiklash lozim deb hisoblar edi. Islom ruhoniylari Amir Temurni asr qahramoni, e‘tiqod tayanchi va kurashchisi, payg‘ambar xush ko‘rgan hukmdor deb e‘lon qiladilar. U o‘zga mamlakatlar haqidagi ma‘lumotlarni savdogarlar, elchilar, qalandar darveshlar va o‘zi yuborgan ayg‘oqchilar yordamida to‘plar edi.

Xullas, Amir Temur buyuk lashkarboshi, davlat arbobi va ulug‘ inson edi. U yaratgan harbiy san‘at merosi jahon xalqlarining harbiy san‘ati merosidan munosib o‘rin oldi va u bugungi kunda yangi mazmun bilan boyib bormoqda.[1.390-bet] Amir temur harbiy-siyosiy strategiyasi o‘tmish uchun ham bugun uchun ham buyuk namunadir. L.Keren «Amir Temur va Yevropa qirollari o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p jihatlari bilan kishini hayratga soladi. Aslini olganda ularni ko‘p narsa ajratib turardi: e‘tiqodlari, tillari, bi-r-biriga dushman xalqlari, oralaridagi masofa va ayniqsa, manfaatlarning turli-tumanligi», — deb yozadi.[2.55-bet] Shuningdek Amir Temur bilan zamondosh bo‘lmagan qirol yo‘qki, Temur harbiy taktikasiga qiziqmagan. Buni biz elchilar va sayyohu –olimlarning yozib qoldirgan manbalaridan bilib olamiz.

Harbiy sarkarda M.Ivanin “Hali bironta ham xalq qo‘shinini to‘g‘ri sarflashni bilmay, tartibsiz taktik harakatlarsiz, faqat o‘zidagi jasorat darajasi bilan uzun-yuluq jang qilayotgan bir paytda Temurning to‘g‘ri saflangan, bir necha yo‘nalishidan iborat muntazam tartib bilan jangga kiruvchi kuchli zaxiraga ega bo‘lgan kuchli armiyasi bor edi”, -deb uning harbiy tizimiga xolis baho bergan edi [3.148bet] Ivaninning fikri sof solishtirmalar ortidagi xulosadir. Shuning uchun ham Temur harbiy taktikasini dunyo tan oladi va uni o‘rganadi.

Umuman olganda Amir Temurning siyosati va harbiy taktikasi juda puhta o‘ylangan rejalar asosida olib borilgan. Shu sababdan ham “Temur tuzuklari” dan siyosatda butun dunyo keng foydalanadi. Xususan, Fransuz tarixchisi Rene Grusse XX asr boshlarida: “Amir Temurning Boyazid ustidan g‘alabasi xristian olamini asrab qoldi” deb yozgan edi [4.35-bet]

H.Vamberi bu haqida shunday xulosaga kelgan: “Temurni Chingiz ila bir safta qo‘yib uni vaxshiy, zolim, qaroqchi deb atagan kishilarning fikrlari ikki marotaba xatodir. U, avvalo, Osiyo sarkardasi edi. O‘zining g‘olib askarlari va qurollaridan o‘z zamonasining taomilicha foydalangan. Uning faoliyati, xususan, dushmanlari tomonidan gunoh hisoblangan ishlari va urushlari, teranroq qaralsa, jinoyatga jazo tarzida qo‘llanilgan. To‘g‘ri, jazo qattiq, lekin adolatli bo‘lgan” [5.110-bet] Amir Temur harbiy-siyosiy strategiyasi Sharq va G‘arb manbalarida turlicha talqin qilinsa-da, ularning barchasida Temurning markazlashgan boshqaruv va intizomga tayangan kuchli davlat modeli e‘tirof etiladi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning quyidagi so‘zlarini keltirishni lozim topdik. “Buyuk shaxslarni tarix yaratadi. Amir Temur bosqinchi to‘dalarning Yevropa ichkarisiga qilayotgan harakatiga chek qo‘yganini, boshqa tajovuzkorlik yurishlarini uzoq muddatga



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



to‘xtatib_qo‘yishini_hozir_inkor_qilib_bo‘lmaydi. — Unga "Yevropaning_xaloskori" degan ramziy_unvon_berilgani_bejiz_emas [6] Primqul Qodirov tadqiqotchiga xos ziyraklik bilan bir fikrni o‘rtaga tashlagan, unga qo‘shilmasdan ilojimiz yo‘q, “Amir Temur mavzusi ummondan cheksiz“. Biz ana shu ummonda kichik bir jilg‘ani tanlab oldik. [7.6-bet] Bu kabi fikrlar juda ham ko‘p. Butun boshli yevropa Amir Temurdan qarzdor desam yanglish bo‘lmaydi chunki o‘sha mashhur “Anqara jangi” Kontstantinopolning yana 50 yil ozod qolishi uchun ulkan yordam bo‘lgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, Amir Temur ning harbiy-siyosiy strategiyasi xorijiy manbalarda turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, ularning aksariyatida uning kuchli sarkardalik qobiliyati va puxta o‘ylangan siyosati e’tirof etiladi. Sharq va G‘arb muarrixlari Temurni ba‘zan shafqatsiz hukmdor sifatida tasvirlasalar ham, uning markazlashgan boshqaruv tizimi, harbiy intizomi va diplomatik mahoratini inkor etmaydilar. Demak, xorijiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Temur faoliyati oddiy istilochilik emas, balki aniq strategik maqsadlarga asoslangan kuchli siyosiy va harbiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi — T.: «Sharq», 2010. — 512 b
2. Улжаева, Шохистахон. Амир Темур дипломатияси: илмий-оммабоп кўлланма, / Ш. Улжаева — Т.: “IJOD-PRESS” нашриёти, 2018 йил. — 156 б.
3. Шохистахон Мамажоновна Улжаева. Амир Темур ва Темурийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши Тошкент Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси” Фан” нашриёти. 2005. 275 б
4. Мухаммад Али. Амир Темур солномаси. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти Тошкент — 2008. 53 б
5. “ Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi” // Respublika ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari to‘plami (6-aprel 2023-yil). – T.: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. -446 b.
6. <https://oz.sputniknews.uz/20170424/5257410.html> Amir Temur haqida Venetsiya arxividagi haligacha chop etilmagan sirli ma’lumotlar
7. Хамдам Содиков. Амир Темур салтанатида хавсизлик хизмати. “ ART FLEX” Тошкент — 2010. 436 б